

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

MUNDARIJA

Nodir YADGAROV. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o'rni.....	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san'atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida)	14
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o'qitishda me'morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda milliy qadriyat va an'analarning o'rni	21
Shuhrat G'ULOMOV. Tarixiy janrda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to'g'ri qo'llash tartibi va ularning emotsional ta'siri.....	27
Qoryog'di JUMAYEV. Kasb-hunar ta'limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san'at o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин.....	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san'ati.....	37
Muhammadoy AZIMOVA. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari va ularning o'ziga xos tomonlari	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE'MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi	47
Oybek SHOMURODOV. O'rta maktab tasviriy san'at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san'atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o'rni	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o'lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san'at darslarida borliqni idrok etish hamda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жительниц Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O'zbekiston rassomlari ijodida manzara janri	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko'chirish" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	71
Sherali ISHANKULOV Kulolchilik - xalq amaliy bezak san'atining bir turi sifatida.....	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO'RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san'atda ranglardan foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish.....	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari.....	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san'atning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'rni	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san'atni o'qitishda borliqni idrok etish mashg'ulotlari.....	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishi.....	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish.....	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san'ati.....	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi.....	103
Jo'rabek YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O'rta ta'lim maktablarda musiqaning muammo va yechimlari	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения.....	108
Jo'rabek YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari	117
Jo'rabek YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo'llashning mazmuni.....	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta'limi orqali milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash	122

Sherali Ishankulov

Buxoro davlat universiteti

KULOLCHILIK - XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATINING BIR TURI SIFATIDA

Maqolada xalq amaliy bezak san'atining bir turi bo'lgan kulolchilik haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: kulolchilik, amaliy bezak san'ati, loy, gil, tuproq, ramz, an'ana.

В статье рассматривается керамика как вид народного декоративно-прикладного искусства.

Ключевые слова: гончарство, декоративно-прикладное искусство, глина, керамика, почва, символ, традиция.

The article deals with ceramics, a type of folk decorative art.

Key words: pottery, applied decorative arts, clay, soil, symbol, tradition.

Kirish. Qadimdan O'zbekistonning barcha hududlari xalq amaliy bezak san'atining o'ziga xos markazlari bo'lib, ular jahon madaniyatiga buyuk badiiy qadriyatlari bilan hissa qo'shgan. Bu qadriyatlar haqli ravishda xalq san'atining ramzi bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 23-martda imzolangan "Kulolchilikni jadal rivojlantirish va qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5033-sonli hamda, 2021-yil 30-dekabrda "Hunarmandchilikni yanada rivojlanish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi PQ-77-sonli Qarori ana shu ezu ishlarini yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishga qaratilganligi bilan g'oyatda ahamiyatlidir. Jumladan, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xorazm va Qoraqalpog'istonda yuzaga kelgan kulolchilik, zargarlik san'ati, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik va kandakorlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, sholchado'zlik, charmga bezak tushirish san'ati, lokli miniatura hamda kitob miniaturasi kabi xalq amaliy bezak san'atining bu turlari davlatimiz rahbari tomonidan qaratilayotgan e'tibor tufayli ravnaq topib kelmoqda.

Asosiy qism. Sopol buyumlar, laganlar, yog'ochdan o'ymakori va naqshinkori qilib yasalgan uy jihozlari, qo'lda to'qilgan gilamlar, miniaturalar, marg'ilonlik, xivalik va toshkentlik ustalar tomonidan misdan yoki jezdan yasalgan, qimmatbaho metaldek yarqirab, shakllangan, nafisligi hamda naqshinkorligi bilan ajralib turuvchi buyumlar, ayniqsa, kandakori idishlar nafaqat xalqimiz, balki mehmon bo'lib kelgan xorijiy sayyohlar nazarida ham bebaho durdonadir. Qo'l mehnati asosida yaratilgan bunday madaniy merosimiz har doim e'zozda. Ustalarimiz yaratgan nodir buyumlar jahondagi ko'plab mamlakatlar muzeylariga tuhfa qilingan va ular tomonidan ardoqlab saqlanmoqda.

Mana shunday ma'naviy, estetik va badiiy an'analarni avlodlariga yetkazish, san'at asarlarini idrok etishga o'rgatish orqali badiiy madaniyatning rivojlanishi, o'quvchilarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish an'analarni yosh avlod ongiga singdirish bugungi kun pedagogining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san'at fanining maqsadi o'quvchilarda xotira, diqqat, tasavvur, harakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish bilan birga o'quvchilarning badiiy tafakkurini shakllantirish hamda ularda tasviriy va amaliy san'at asarlarini estetik idrok etish kompetensiyalarini takomillashtirishdan iboratdir.

Xalq amaliy bezak san'atining nodir namunalardan biri bu - kulolchilik san'atidir. O'quvchilarga ushbu san'atning ijtimoiy mohiyati va ahamiyatini anglash, idrok etish va baholash, ularga estetik munosabat bildirish malakalarini tarkib toptirish, amaliy san'at, badiiy hunarmandchilik namunalari bilan tanishtirish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi nazariy bilim va amaliy malakalarini tarbiyalash, shaxsan muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy madaniyat an'analariga faol munosabatni shakllantirish muhimdir.

Kulolchilik san'ati bu - loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezigulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo'lsada uning ko'rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, buyumlar, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo'lib, uzoq

tarixga ega. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar azaldan bilishgan. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma yerlarida bo'lgani tufayli dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar. XIX asrda Markaziy Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'lib, ustalar turli-tuman buyumlar yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar. Bular rishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov, g'ijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, toshkentlik Turob Miraliyev, shahrisabzlik Rustam Egamberdiyev, Karim Hazratqulov va boshqalar edi. Keyinchalik esa O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov bu sohada samarali mehnat qildi. U o'ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san'atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi. Umumta'lim maktab o'quv dasturida ajratilgan amaliy bezak san'ati mavzularini samarali tashkil etish o'qituvchidan ijodkorlikni o'tiladigan mavzularga kreativlik bilan yondashishni talab etadi. Masalan o'quvchilarni kulolchilik san'atiga qiziqtirish uchun sharoitdan kelib chiqqan holda darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish mumkin. Har bir hunarning o'ziga xos mashaqqati va o'ziga xos sir-asrorlari bo'ladi.

Muhokamalar va natijalar. Qadimdan ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o'z shogirdlariga o'rgatib o'zga bolalarga o'rgatmaganlar. Usta-hunarmandlar asrlar mobaynida kulolchilik sir-asrorlarini o'rganib har bir mahsulotning, ayniqsa, sifatiga, badiiyligicha, foydalanish qulayligiga va uning umrboqiyiligiga alohida e'tibor berib kelganlar. Shuning uchun ular tayyorlagan oddiy sopol piyolasidan tortib sharq me'morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyiligi dunyo ahlini lol qoldirmoqda. Ha, bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan materiallardan keng foydalanib kelganlar. O'tmishda tuproqdan qorachiroq, shamdon, sarxona, jomashov, xum hamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan. Hozirda ham tovoq, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko'p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xomashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimtir, qizil loykor turlari bo'ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o'zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi.

Loyi guldon - sershiral loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo'lib, jusha loyi qo'shilgan bo'ladi.

Chinni loy yoki oq loy - yarimfoyans bo'lib, qoramtir loy oqtoqsh va ishqor qo'shib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan boshqalar tayyorlanadi.

Kesma koshin loy - o'tga chidamli qoramtir loydan, ya'ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlanadi. Undan har xil mozaikali koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy - shiral loyga kvarts qumi qo'shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

Kosagar loy - patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

Ko'zagar loy - 60-70% plastik yog'li loy va 30-40% sog' tuproqdan iborat bo'ladi. Undan xum, guldon, ko'za va boshqalar tayyorlanadi. Loy bilan ishlash uchun uni pishirish, sirlash kabi jarayonlarni amalga oshirish uskunalari xom-ashyolari kerak bo'ladi. Ammo ushbu san'atni o'rganishning boshlang'ich bilimlarini egallash uchun loy o'rmini bosuvchi turli qorishmalardan foydalanish mumkin. Masalan:

- polimer loyi;
- tuzli xamir;
- PVA+shpatlyovka qorishmasi;
- papye-mashe qorishmasi.

Bu qorishmalardan turli buyumlar dekorativ tovoqlar, o'yinchoq hushtaklar, mebellar uchun bezaklar, shamdonlar, mayda suvenirlar yasash mumkin. Bu usullar hamma uchun mos emas yoki ushbu qorishmalar loy o'rmini bosa olmaydi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Yasaladigan buyumlar uchun xomashyoni tayyorlash mumkin bo'lsa-da, ishlab chiqarish jarayoni juda murakkab. Kulol g'ildiragi uchun joy topish, uni pishirish uchun maxsus xumdonlar yasash mushkul. Bundan tashqari, maxsus bilim va professional sezgi yo'qligi har qanday ish bosqichida har qanday hunarmandning harakatlarini buzishi mumkin. Ammo qo'l mehnati bilan tayyorlangan namunalar hamisha qadrlil va noyobdir. Har bir mahsulotda kulol-hunarmandning fe'l-atvori seziladi, chunki u nafaqat o'z kuchini, balki qalb qo'ri, mehri, tajribasi va bilimini ham beradi.

Xulosa. Kulolchilik uzoq umr ko'radigan ish bo'lib, yuqori daromad keltirishi mumkin. Zero, biz pedagoglar maktab bitiruvchilarini milliy o'quv dasturida ta'kidlanganidek, amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi bu - o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, faoliyatini oqilona rejalashtirish, muammoning yechimini topishda mavjud resurslardan samarali foydalanish, faoliyatining barqarorligi va o'zining farovonligini ta'minlay olish, faoliyatini tanqidiy baholash, uni yaxshilash uchun o'z ustida ishlash, o'z

faloyatini texnik va texnologik taraqqiyot o'zgarishlariga moslashtira olish, kasb turi va faoliyati yo'nalishini ongli hamda mustaqil ravishda tanlash, amaliy ko'nikmalarini o'zi va jamiyatni barqaror rivojlantirishga safarbar qilish ko'nikmalarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar

1. Toshxo'jayev Sh.S. O'zbekiston amaliy badiiy san'ati. -T.: "O'zbekiston" markaziy nashriyoti, 1971.
2. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. -Toshkent: "Mehnat", 1991.
3. Aslanova N.H. Journal of Innovations in Social Sciences. Volume:01 Issue:06 2021
4. Aslanova N.H. Buxoro musiqa folklorining tarixiy nazariy va amaliy masalalari// Ilmiy amaliy konferensiya. -Buxoro, 2021.